



## GLOBAL MOLIYAVIY INQIROZ VUJUDGA KELISHI VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

*Hayitova Dilnura Ikromjon qizi*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Bank ishi” fakulteti magistratura bosqichi talabasi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada global moliyaviy inqirozlarning kelib chiqish sabablari, shakllanish mexanizmlari hamda ularning milliy va xalqaro iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri atroflicha tahlil qilinadi. Maqolada so'nggi o'n yilliklarda ro'y bergan yirik moliyaviy inqirozlar misolida xalqaro savdo hajmi qisqarishi, investitsiya faolligi pasayishi, bandlik darajasining yomonlashuvi, inflyatsiya va valyuta kurslarining beqarorlashuvi kabi oqibatlar iqtisodiy tahlil yordamida asoslab beriladi. Shuningdek, inqiroz davrida hukumatlar va markaziy banklar tomonidan ko'riladigan monetar va fiskal choralar, moliya sektorini barqarorlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan islohotlar samaradorligi ham o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Global moliyaviy inqiroz, iqtisodiy xavf, moliya bozorlari, likvidlik tanqisligi, investitsiya pasayishi, iqtisodiy o'sish, davlat siyosati, monetar choralar, fiskal choralar, xalqaro moliyaviy tashkilotlar.

### ABSTRACT

In this article, the causes of global financial crises, their formation mechanisms, and their impact on national and international economies are thoroughly analyzed. Using examples of major financial crises that occurred in recent decades, the article examines such consequences as the decline in international trade volumes, reduced investment activity, worsening employment levels, and the instability of inflation and exchange rates, all supported by economic



analysis. In addition, the study evaluates the effectiveness of monetary and fiscal measures taken by governments and central banks during crises, as well as reforms aimed at stabilizing the financial sector.

**Keywords:** Global financial crisis, economic risk, financial markets, liquidity shortage, decline in investment, economic growth, government policy, monetary measures, fiscal measures, international financial institutions.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно анализируются причины возникновения глобальных финансовых кризисов, механизмы их формирования, а также их влияние на национальную и международную экономику. На примере крупнейших финансовых кризисов последних десятилетий рассматриваются такие последствия, как сокращение объёмов международной торговли, снижение инвестиционной активности, ухудшение уровня занятости, нестабильность инфляции и валютных курсов, что обосновано с помощью экономического анализа. Кроме того, исследуется эффективность монетарных и фискальных мер, принимаемых правительствами и центральными банками в период кризисов, а также реформ, направленных на стабилизацию финансового сектора.

**Ключевые слова:** глобальный финансовый кризис, экономический риск, финансовые рынки, дефицит ликвидности, снижение инвестиций, экономический рост, государственная политика, монетарные меры, фискальные меры, международные финансовые организации.

### Kirish

Global iqtisodiyotning chuqur integratsiyalashuvi sharoitida moliya bozorlarida yuzaga kelayotgan har qanday tebranishlar nafaqat bitta mamlakat doirasida, balki butun dunyo miqyosida iqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi.



Oxirgi yillarda kuzatilgan yirik moliyaviy inqirozlar shuni ko'rsatadiki, global moliya tizimi o'zaro bog'liqligi, kapital oqimlarining tezkor harakati va xalqaro savdoning kengayishi tufayli iqtisodiy zarbalarga nisbatan sezgir bo'lib bormoqda. [2]. Moliyaviy inqirozlar aktivlar narxining keskin pasayishi, bank tizimidagi likvidlik yetishmovchiligi, kreditlashning qisqarishi, ishlab chiqarish darajasining pasayishi kabi omillar orqali iqtisodiy faollikni izdan chiqaradi[1].

Global moliyaviy inqirozlarning kelib chiqish sabablari murakkab bo'lib, ular ko'pincha iqtisodiy subyektlarning harakati, moliyaviy institutlar boshqaruvi, fiskal va monetar siyosatdagi nomutanosibliklar bilan chambarchas bog'liq[3]. Shuningdek, jahon moliya bozorlarida yuzaga kelgan beqarorliklar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buning sababi ularning tashqi qarzga qaramligi, valyuta zaxiralari yetarlicha yuqori emasligi va iqtisodiy tizimlarining nisbatan zaifligidir[4].

Ushbu maqolada global moliyaviy inqirozning sabablari, rivojlanish bosqichlari va uning iqtisodiyotga ko'rsatadigan asosiy ta'sirlari tahlil qilinadi[5]. Shuningdek, inqiroz oqibatlarini yumshatish va moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda davlat siyosati, markaziy banklar choralarining o'rni ham ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi[7]. Mazkur tadqiqotning ahamiyati shundaki, global iqtisodiy beqarorliklar xavfi ortib borayotgan sharoitda inqiroz mexanizmlarini chuqur o'rganish kelajakdagi risklarni boshqarish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Global moliyaviy inqirozlarning mohiyati, kelib chiqish sabablari va iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri masalasi bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli tadqiqotlar mavjud. Chet el tadqiqotchilari asosan moliya bozorlari integratsiyasi, xatarlarni boshqarish mexanizmlari va global iqtisodiyotdagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga e'tiborlarini qaratgan bo'lsalar, o'zbek tadqiqotchilari



mahalliy iqtisodiy tizimga ta'sir, milliy moliya sektorining barqarorligi va davlat siyosati samaradorligini chuqur o'rganib kelmoqda. Amerikalik iqtisodchi Paul Krugman global moliyaviy inqirozlarning kelib chiqishida tartibga solinmagan kredit bozorlarining o'rni, aktivlar narxidagi sun'iy o'sish va moliyaviy spekulyatsiyalar muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, moliyaviy pufaklar yorilishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini beqarorlashtirishi, ayniqsa bandlik va investitsiya oqimlariga kuchli zarba berishi mumkin. O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik, bank tizimining mustahkamligi va global inqirozlarning milliy iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. B. Xudoyqulov va A. Mamatqulovlarning tadqiqotlarida global moliyaviy inqiroz sharoitida davlatning fiskal qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish, bank tizimini modernizatsiya qilish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash strategiyalari taklif etilgan[9]. Ular raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi inqirozga chidamlilikni oshirishini ham qayd etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Global moliyaviy inqiroz — bu dunyo miqyosida moliya bozorlari barqarorligining buzilishi, kredit tizimining izdan chiqishi va iqtisodiy faollikning keskin pasayishi bilan tavsiflanadigan jarayondir. Bunday inqirozlar birgina omil natijasida emas, balki iqtisodiyotdagi ichki va tashqi muvozanat buzilishi, moliya bozorlaridagi xatarlarning to'planishi hamda siyosiy-iqtisodiy qarorlar uyg'unligining yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi – 2008 yilda bo'lib o'tgan bo'lib, AQSHda bankalrning kreditlarini qarzini qaytarish qobiliyati bo'lmaganlarga berishi oqibatida boshlanadi[2].

Global moliyaviy inqirozning vujudga kelish sabablari mavjud. Dastlab AQSh ipoteka bozorlarida yuzaga kelgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lganlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y bergan. Ipoteka



кредити o‘zining mohiyati bo‘yicha ko‘chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo‘lsa-da, AQSh bozorlari bunday likvidli ko‘chmas mulklarga yetarlicha «to‘yingani» oqibatida ularning narxlari keskin tusha boshlagan. Jahon miqyosida olib qaraydigam bo‘lsak quyidagi holatlar ham jahon moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi va ular quyidagi chizmada keltirilgan (1- chizma).



### 1-rasm. Global moliyaviy inqirozning vujudga kelish sabablari[2]

Moliyaviy bozorlarning haddan tashqari liberallashuvi - so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab mamlakatlarda moliya sektori tartibga solishning sustlashuvi kuzatildi. Natijada banklar, investitsiya fondlari va boshqa moliya institutlari yuqori darajadagi riskli aktivlarga katta miqdorda sarmoya kiritdi. Risklarni baholash tizimining zaiflashuvi bozor muvozanatini izdan chiqardi[5].

Kredit bozoridagi noto‘g‘ri siyosat va ortiqcha kreditlash - arzon kreditlar, ipoteka kreditlarining tez o‘shishi, to‘lovga qodirligi past bo‘lgan mijozlarga ham kredit berilishi kredit pufagining shishishiga sabab bo‘ladi. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz bunga yorqin misoldir.




Aktivlar narxining sun'iy oshishi - ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va xomashyo bozorlarida real iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan mos kelmaydigan narxlar shakllanadi. Narx pufagi yorilganda esa kapitalning katta qismi yo'qoladi.

Moliyaviy institutlar boshqaruvining zaifligi - banklar tomonidan risklarni noto'g'ri boshqarish, kredit portfeli sifatining pasayishi, likvidlik rezervlarining yetarli darajada shakllantirilmaganligi inqirozni tezlashtiradi.

Global iqtisodiyotning o'zaro haddan tashqari bog'liqligi - bir mamlakatdagi moliyaviy tebranishlar qisqa muddat ichida boshqa davlatlarga ham tarqaladi, chunki kapital oqimlari, savdo aloqalari va bank tizimlari global darajada integratsiyalashgan.

Global moliyaviy inqiroz jahonda iqtisodiy faollikning keskin pasayishiga, ishlab chiqarish qisqarishiga, ishsizlikning oshishiga va investitsiyalarning kamayishiga olib kelgan eng yirik iqtisodiy hodisalardan biridir. Inqirozning eng yirik oqibatlari 2008–2009 yillarda namoyon bo'lib, uning ta'siri deyarli barcha davlatlarga tarqaldi. Global moliyaviy inqirozning iqtisodiyotga ta'siri quyidagi rasmda berilgan[6] (2-rasm)



2- rasm. Global moliyaviy inqirozning iqtisodiyotga ta'sir[2]



Iqtisodiy o‘shish sur‘atining pasayishi - inqiroz davrida investitsiya faolligi kamayadi, ishlab chiqarish qisqaradi va korxonalar faoliyati sustlashadi. Bu esa YaIM o‘shishining sekinlashishiga olib keladi. 2007-yilda jahondagi iqtisodiy o‘shish sur‘ati 5,4% bo‘lgan bo‘lsa, inqiroz cho‘qqisiga chiqqan 2009-yilda global iqtisodiyot –0,6% darajagacha pasaygan. Bu 70 yillik tarixda kuzatilgan eng katta global pasayish bo‘ldi.

Bandlik darajasining pasayishi - korxonalar ishlab chiqarish hajmini kamaytirgani sababli ishsizlik ortadi. Aholining daromadlari tushib ketadi, bu esa iste‘mol talabining qisqarishiga olib keladi. Inqiroz sabab dunyo bo‘yicha 34 milliondan ortiq yangi ishsizlar paydo bo‘lgan.

Ayrim davlatlardagi ko‘rsatkichlar:

AQSH: ishsizlik 2007-yildagi 4,7% dan → 2009-yilda 10,0% ga ko‘tarildi.

Ispaniya: ishsizlik 26% darajaga chiqdi (eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri).

Yevro hududi o‘rtacha: 12%. Bu aholi daromadlarining qisqarishiga, iste‘mol talabining pasayishiga va iqtisodiy siklning yanada kuchli tushib ketishiga olib keldi.

Moliyaviy beqarorlik va bank tizimi muammolari - likvidlik tanqisligi banklar faoliyatini cheklaydi. Kreditlar qisqaradi, bankrotlik holatlari ko‘payadi. Bu iqtisodiyotning barcha sohalarini izdan chiqaradi. 2008–2009 yillarda dunyo banklari umumiy zarar miqdori 4 trillion dollardan ortiq bo‘lgan.

Yirik banklarning bankrotligi:

Lehman Brothers – 600 mlrd dollarlik aktivlar bilan bankrot bo‘ldi (tarixdagi eng yirik bankrotlik).

Merrill Lynch, AIG, Fannie Mae, Freddie Mac kabi gigantlar davlat tomonidan qutqarib qolindi.

Jahon bo‘yicha kreditlash 20–40% gacha qisqardi. Bu esa ishlab chiqarish, savdo, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalariga katta zarba berdi.



Valyuta kurslarining beqarorlashuvi - xorijiy investitsiyalar ketishi, eksport hajmining pasayishi, valyuta zaxiralarining kamayishi natijasida milliy valyuta devalvatsiyaga uchrashi mumkin.

Davlat qarzining ortishi - inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun hukumatlar qo'shimcha xarajatlar qiladi, fiskal taqchillik ortadi, bu esa davlat qarzining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Aholi farovonligiga salbiy ta'sir - inflyatsiya, ishsizlik, daromadlarning pasayishi va kredit yukining oshishi natijasida aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yomonlashadi.

Hech kimga sir emaski, bugun keng ko'lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri – bu banklar likvidligi, ya'ni to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, soda qilib aytganda, pul mablag'larining yetishmasligi bilan izohlanadi. Mamlakatimizda esa birgina tijorat banklarining aktivlari miqdori, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq shakllangan zaxiralarni hisobga olgan holda, 13 trillion 360 milliard so'mdan oshadi. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning jalb qilingan depozitlari hajmidan taxminan 2,4 barobar ko'p demakdir. Bank aktivlari hajmining sezilarli darajada oshganini hisobga olib, bugungi kunda respublikamizda aholining banklardagi barcha depozitlarini davlat tomonidan yuz foiz kafolatlash ta'minlanmoqda[10].

Global moliyaviy inqirozga qarshi doim chora tadbirlar olib boriladi. AQSh va Yevropa Ittifoqini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularni byudjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladi yoki tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanish joriy qilinadi. Masalan, AQShda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali xususiy sektorni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirgan bo'lsa, Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga



37 mlrd. funt sterling mablag'larini investitsiya qilgan. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun investitsiya va kreditlar shaklida 500 mlrd. evro ajratgan. Bu davrda Yevropaning ko'pchilik yirik banklari milliyashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi.

Inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalanish yo'lga quyilgan. Dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlari inqirozni bartaraf qilish uchun yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajrata boshladi. Jumladan, AQSh hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollar bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ni tashkil etadi. O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi sababli inqiroz oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi muqarrar bo'lgan.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, global moliyaviy inqirozlar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, ularning vujudga kelishi iqtisodiy tizimlarning o'zaro bog'liqligi, moliya bozorlari chuqur integratsiyasi va kapital oqimlarining tezkor harakati bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, inqirozlarning kelib chiqish sabablari ko'p qirrali bo'lib, moliya institutlarining nazoratdan chetda qolishi, kredit siyosatidagi beqarorlik, narxlarning asossiz o'sishi, likvidlik tanqisligi, shuningdek global iqtisodiy siyosatdagi nomutanosibliklar bilan bog'liqdir[9].

Global moliyaviy inqirozlar iqtisodiyotga katta xavf tug'dirsada, ularning mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, moliya tizimini barqaror boshqarish va makroiqtisodiy siyosatni samarali yo'lga qo'yish kelajakdagi inqirozlarning salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiy



xavfsizlikni mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va inqirozlarning takrorlanish xavfini kamaytirishda muhim ilmiy-amaliy xulosalar beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education. — Global iqtisodiyot va moliyaviy inqiroz mexanizmlariga oid asosiy nazariy manba.
2. Stiglitz, J. E. (2010). *Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy*. W.W. Norton & Company. — 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz sabablari va oqibatlari.
3. Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. (2009). *This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly*. Princeton University Press. — Moliyaviy inqirozlarning tarixiy tahlili.
4. Mishkin, F. S. (2016). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson. — Bank tizimi, likvidlik inqirozlari va moliya bozorlari haqidagi asosiy darslik.
5. Claessens, S., Kose, M. A., & Terrones, M. E. (2012). "How Do Business and Financial Cycles Interact?" *Journal of International Economics*, 87(1). — Moliyaviy va iqtisodiy sikllarning o'zaro bog'liqligi.
6. International Monetary Fund (IMF). *World Economic Outlook Reports* (turli yillar). IMF global iqtisodiy beqarorlik, savdo hajmi o'zgarishi, investitsiya oqimlari bo'yicha statistik ma'lumotlar va tahlillar.
7. World Bank. *Global Economic Prospects* (turli yillar). Jahon iqtisodiyotidagi pasayishlar va inqiroz oqibatlarini tahlil qiluvchi xalqaro hisobotlar.
8. Kiyotaki, N., & Moore, J. (1997). "Credit Cycles." *Journal of Political Economy*, 105(2). — Kredit bozoridagi buzilishlar inqirozlarni qanday kuchaytirishi haqida klassik tadqiqot.



9. Qodirov, B. (2020). Moliya bozorlari va ularning rivojlanish xususiyatlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. — O‘zbekistonda moliya bozorlari va inqirozlar konteksti.
10. Abdurahmonov, Q., & Xasanov, B. (2019). Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya. — Inqirozlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri bo‘yicha o‘zbek tadqiqotchilarining ishlari.